



RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNING UMUMIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Special pedagogy fakulteti talabasi

Ilhomjonova Omina Toxirjon qizi

Annotatsiya: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning bilish jarayonlari, idrok ,xotira, diqqat, nutq, tafakkur, faoliyat xususiyatlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan, xususiyatlar,diagnoz, davr, maktabgacha yosh ,maktab yoshi.

Аннотация :

Поговорим кратко о познавательных процессах, восприятии, памяти, внимании, речи, мышлении и особенностях деятельности детей с задержкой психического развития.

Ключевые слова: Умственная отсталость, характеристика, диагностика, период, дошкольныйвозраст, школьный возраст.

Annotation:

Let's briefly discuss the cognitive processes, perception, memory, attention, speech, thinking, and activitycharacteristics of children with mental retardation.

Key words: Mental retardation, characteristics, diagnosis, period, preschool age, school age.

RRS diagnozli bola bu hech narsani bilmaydigan, istamaydigan va qila olmaydigan

boladir, ammo u bilishi, qila olishi va xohlashi zarur.(Eduard Segen)



Ruhiy rivojlanishning sustlashishi termini G.E.Suxaryova tomonidan 1959-yil fangakiritilgan. Rivojlaniashning sustlashishi bu bilish va emotsional sohalarning shakllanish sur'atining sekinlashuvi bo'lib, bunda bilish jarayonlari va emotsional holat kichikroq yoshga xos bo'lgan holatda bo'ladi. Bunda epizodik buzilishlar kuzatiladi, ya'ni ayrim jarayonlar yaxshiroq saqlan, ayrim jarayonlar yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. (V.V. Lebedinskiy) Ruhiiy rivojlanishning sustlashishi – chegara shaklidagi buzilish bo'lib, turli psixik funksiyalar rivojlanishi tempining sekinlashuvida namoyon bo'ladi (N.M.Nazarova)

RRS sabablari;

Tibbiy-biologik sabablari: Bosh miyanning minimal jarohatlanish, genetika, travmalar, markaziy nerv sistemasining funksional yetilmaganligi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining yetarlicha shakllanmaganligi.

Ijtimoiy psixologik sabablar: Deprivatsiya (bola bilan ruhiy aloqaning uzulishi), bolani qabul qilmaslik, alkogolizm, narkomaniya.

Noto'g'ri tarbiya usullari, noto'liq oila faktori, oilaning ta'lim sohasidagi darajasi yuqori emasligi.

RRSning asosiy klinik turlari (Lebedinskaya.K.S 1982y)

Konsitutsional RRS

Somatogen RRS

Psixogen RRS

Sserebral – organik RRS.

Foydalanilg RRS ga ega bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari

Maktabgacha yosh davri

RRS ga ega bolalar nutqidagi kamchiliklar avvalo, ilk so'z va jumalarning kechroq paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Keyin esa lug'at zahirasiining sekin kengayishi, grammatik qurilishlarni sekin o'zlashtirish kuzatiladi. Natijada nutq sistemasining umumiy rivojlanish templari ortda qoladi. Bumday bolalarning ko'pchiligida talaffuz kamchiliklari kuzatiladi.



Maktab yoshi davri

Kuzatuvlarga ko'ra RRS ga ega bolalar maktab davriga kelib tenggooshlari va kattalar bilan elwmwintar maishiy muloqotda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Ular kundalik lug'at hamda kundalik muloqot uchun zarue bo'lgan grammatik tuzilmalarni egallagan boladilar Ammo yangi bosqichda bolaga tanish bo'lmagan so'zlardan foydalanish, savollar mazmunini yaxshi tushunmaslikka olib keladi Tuahunishdagi qiyinchiliklar tolaffuz kamchiliklari bilan bog'liq bolishi mumkin.

Ammo nutqdagi jiddiy kamchiliklar Idrok etilayotdan nutqiy material mazmunini noaniq bo'lishiga olib keladi. Natijada, bolalar toght so'zni bilsalar ham, undanto'g'n holatda foydalana olmaydilar. Ko'plab xatolar, agrammatizmlar aynan shu kamchilik bilan bevosita bog'liq. RRS ga ega bolalar nutqiy rivojlanishidagi kamchiliklar

- Nutqiy motorikqning yetarlicha rivojlanmaganligi.
- Polimorf xarakterdagi tovush talaffuzidagi kamchiliklar.
- Fonematik idrok rivojlanishidagi kamchiliklar.
- Tovush analizi va sintezining shakllanmaganligi.
- Lug'atning noaniq shakllanishi, passiv lug'at ustunligi.
- Predmetlar va ularning nomlarini moslashtirishdagi qiyinchiliklar.
- So'z yasash, so'z o'zgartirish jarayonlarining sezilarli eivojlanmaganligi.
- Nutq orqali o'z faoliyatini boshqariah ko'nikmalarining yo'qligi.

Ruhiy rivojlanishi suatlashgan bolalarning barcha bilish jarayaonlarida o'ziga xosliklar kuzatiladi. Aqli zaiflikdan farqi shundaki, aqli zaiflikda barcha kognitiv jarayonlar turg'ub buzilsa, RRS da Ayrim jarayonlaening ayrim xususiyatlari zararlanadi. Kompleks yondashuv hamda tizimli korreksion rivojlantiruvchi ish natijasida bu kamchiliklar bartaraf etiladi.

RRS da bilish jarayonlarining rivojlanish

DIQQAT

Maktabgacha yosh



Diqqat shakllanishidagi kamchiliklar, dastlabki davrda, bolaning atrof- olamdagi voqea-hodisalarni idrok etish xususiyatlarini kuzatish davomida namoyon boladi. Bolalar bir obyektga uzoq muddat diqqatlarini jamlay olmaydilar, diqqat turg'un emas Bu bola shug'ullanadigan barcha faoliyat turlarida shu ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Maktab yoshi

Kichik maktab yoshidagi RRS ga ega o'quvchilarda, diqqat tug'unligi buzilgan bo'ladi. U turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda vazifani bajarishning dastlabki bosqichida maksimal diqqat jamlanib, keyingi bosqichlarsa susayib boradi, bola bunda vazifani xato bajarishi yoki bajarmay qo'yishi mumkin. Boshqa Bolalarda diqqatni jamlash, vazifani ma'lum muddat bajargandan song yuzaga keladi, keyinroq sekin-sekin yo'qoladi. Diqqat tebranishlarni kuzatiladigan o'quvchilar ham mavjud.

MOTORIKA

Maktabgacha yosh RRS ga ega bolalar markaziy nerv sistemasi xususiyatlandan kelib chiqqan holda, harakatlar Koordinatsiyasining buzilishi, palapartish harakatlar kuzatiladi Ko'pchilik bolalarda, giperkineziar haddan tashqari harakat faolliklan (noodatiy kuchli harakatlar, mushak tortishisjlari kuzatiladi. Ba'zi holatlarda harakat faolligi meyoriga nisbatan sezilarli sustlashga bo'ladi Maktab Yoshi Ba'zi holatlarda harakatlar sekinligi, qo'polligi saqlangan bo'ladi. Uzoqlikka va balandlikka sakrashda qiyinchiliklar kuzatiladi. RRS ga ega bola ko'ptokni bir qo'l bilan ilishga qiynaladi. Ko'ptokni uloqtirishda qo'llarini oldinga cho'zmaydi. Mayda qo'l motorikasi ham yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi, bu ayniqsa kesish-yasash jayaronida yaqqol namoyon bo'ladi.

HISSIIY-IRODAVIY SOHA

Maktabgacha yosh RRS ga ega bolalarda emotsinmal beqarorlik, emotsiyistarning shakllanmaganligi kuzatiladi Emotsiyalar tung'un emas, bir emotsiya boshga emotsiyaga tez-tez almashib turadi Ular ososngina yig'idan



kulishga o'tadilar hamda aksincha bo'lishing mumkun. Maktab Yoshi RRS ga ega muktaf o'quvchilariga emotsional beqarorlik, shaxsning umumiy yetmaganligi, irodaning sustligi, miyyaning shakllanmaganligi va hokazo. Emotsional faollik, kayfiyat va emotalyalarning lurgun emasligida, emotsional qo'zg'alishning tezligida namoyon bo'ladi. Kopiricha bunday bolalar dormiy havatida yuradilar. Atrofdaglar kkafiyati va emotsiyalarini to'g'ri baxolay olmaydilar. Vaziyatdan qat'iy nazar notabiy olmay hushchaqchaqlik kuzatilishi mumkin.

TAFAKKUR

Maktabgacha yosh

Tafakkuming barcha turlarida (ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakat, so'zmantiq) ortda qolish kuzatiladi. Bu bolaning umumiy bilish jarayonlarining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Maktab yoshi RRS ga ega kichik maktab yoshidagi bolalarda bilish faolligi juda sust bo'lib, motivatsiyaning yo'qligi bilan xarakterlanadi. O'z navbatida, o'quv faoliyati motivatsiyasining bo'lmasligi, ko'pincha tafakkurga oid masalalarni yechishga tayyor emaslikni bildiradi.

FAOLIYAT

Maktabgacha yosh RRS ga ega bolalar o'yin faoliyatining o'ziga xosligi uning monotonligi, ijodiy yondashuvning yo'qligi, tasavvurning cheklanganligi, emotsianallikning sustligi, bolalar faolligining pastligi bilan xarakterlanadi.

Maktab Yoshi RRS ga ega bolalar o'quv faoliyati boshida juda faol bo'ladilar. Sinf bilan ishlashlari mumkin, ammo tezda charchab qoladilar, bilish faolligi tezda susayib qoladi. Ular tez chalg'ib qoladilar, Shuning uchun ham materialni to'liq o'zlashtira olmaydilar. Vazifalarni bajarishda ba'zi oquvchilar o'z kuchlariga ishinmay passiv bo'lsalar, ba'zilar haddan tashqari faol bo'lib, ammo bajargan ishlari kamdan-kam to'g'ri chiqadi.

RRS bolalar o'ziga xos nutqiy rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadilar. Bu bir tarafdin nutqiy rivojlanishning ortda qolishi bilan belgilansa, boshqa tarafdin nuqsonlar xarakterida namoyon bo'ladi.



E.V.MALTSEVA RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARNI MAVJUD NUTQ NUQSONLARIGA KO'RA 3 GURUHGA AJRATADI:

1-Guruh

Faqatgina tovush talaffuzidagi nuqsonlar kuzatiladi. Buning sababi artikulyatsion apparat va nutqiy motorikaning yetarlicha rivojlanmaganligidir. Bu guruhga RRS bolalarning 27,4% qismini kiritish mumkin.

2-Guruh

Bu guruhdagi bolalarda fonetik-fonematik buzilishlar kuzatiladi. Ya'ni tovushlar talaffuzidagi qiyinchiliklar, o'xshash tovushlarni farqlay olmaslik, fonematik analizsintez, shuningdek yozma nutqidagi(o'qish va yozish) kamchiliklar namoyon bo'ladi.

3-Guruh

Nutqning to'liq rivojlanmaganligiga ega RRS bolalar: bunda ham talaffuz, ham lug'at, ham grammatik qurilish jihatdan kamchilikka ega bo'ladilar. Shuningdek jumlar tuzishdagi qiyinchiliklarni ham ko'rish mumkin.

IMPRESSIV NUTQ XUSUSIYATLARI

Impressiv nutq darajasida murakkab, mantiqiy- grammatik tuzilmalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular yashirin ma'noli matnlarni o'qib tushunmaydilar. Kichik maktab yoshidagi RRS o'quvchilarda hikoya va ertaklar

mazmunini idrok etish va tushunish ancha qiyinchilik tug'diradi. Nutqiy tovushlarning yetarlicha differentsiyanmaganligi o'qish va yozishdagi kamchiliklarni yuzaga keltiradi.

EKSPRESSIV NUTQ XUSUSIYATLARI

Ekspressiv nutq jihatdan lug'atning kambag'alligi, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, nutqning leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganligi, agrammatizmlar, artikulyatsion apparat kamchiliklari namoyon bo'ladi.

(55% RRS bolalarda nutqiy motorika yetishmovchiligi kuzatilib, ulardan 45%i



artikulatsion apparat tuzilishidagi kamchiliklardan iborat) Lug'at zaxirasi bevosita bolaning intellektual rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. RRS bolalarda bilish faolligining sustligi so'z boyligining kamligiga sabab bo'ladi. Nutqda asosan ot va fe'l so'z turkumiga oid so'zlardan foydalanadilar, sifatlar Predmetlarning faqatgina ko'rinadigan belgilarini ifodalashda qo'llaniladi. So'zlarga sinonimlarni topish, grammatik jihatdan murakkabroq jummalarni tuzish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari bog'langan nutqda ham bir qator o'ziga xosliklar kuzatiladi. O'qilgan hikoya yoki matnni rasmlarga tayangan holda yoki o'qituvchi yordami bilan bo'lsada qayta hikoya qilib bera olmaydilar.

TAFAKKUR XUSUSIYATLARI

Tafakkur jarayonining o'ziga xosligi bilish faolligi va o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyaning yo'qligidir. Bunday bolalar yangi vazifalarni hal etishga qiziqmaydilar, murakkab topshiriqlarni bajarishni istamaydilar, tezroq o'yin faoliyatiga jalb etilishni istaydilar. Maktab ta'limi jarayonida o'z faoliyatlari natijalariga qiziqmaydilar, Tez charchaydilar, Yangi bilimlar olishga qiziqmaydilar. RRS bolalar tafakkuriga xos keyingi xususiyat vazifani hal etishda rejaning yo'qligidir. Bu toifa bolalar berilgan topshiriqni hal etish uchun ish sxemasini tuza olmaydilar. Ular kutilmaganda, tez harakat qiladilar, ko'rsatmani tushunish va unga binoan harakat qilish o'rniga, RRS bolalar tez, bilganlaricha bajaradilar hamda natijasiga umuman qiziqmaydilar. RRS bolalarga fikrlash faolligining sustligi ham xosdir. Bu vazifalarni bajarishdagi shoshqaloqlik bilan taxminan bajarish, rejasiz harakat qilishda namoyon bo'ladi.

Ba'zida intuitiv tarzda to'g'ri javoblarni ham topishlari mumkin, ammo nima uchun aynan u javob to'g'ri ekanligini tushuntira olmaydilar.

RRS bolalar tafakkurining keyingi xususiyati – bir qoliplilik. RRS bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur sezilarli rivojlanmagan bo'lib, namuna bilan ishlash, obyektning muhim qismlarini ajratish, qismlari orasida aloqalarni o'rnatish kabi vazifalar qiyinchilik tug'diradi. Mantiqiy tafakkurda ham o'zgarishlar bo'lib,



elementar mantiqiy zanjirlarni shakllantirishda qiynaladilar. Analiz, sintez, guruhlash kabi operatsiyalarda buzilishlar mavjud.

Xulosa: Har qanday imkoniyati cheklangan bolalar shu qatorda Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ham nuqsonlarini o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa korreksiyalash jarayoni yengillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma / L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
2. Umumiy psixologiya: o'rta maxsus, litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma/ M. E. Zufarova. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
3. R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y